

## **CHE TILINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

*Kuychiboyeva Intizorkhon*

*Andijon davlat chet tillari Instituti talabasi*

*Sotvoldiyeva Mohlaroyim*

*Andijon davlat chet tillari instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chet tillarini o'qitishdagi interfaol metodlar bilan tanishishingiz mumkin. Bundan tashqari dars o'tish jarayonidagi turli xildagi eski matodlardan voz kechishinfqiz va dars o'tish davomidagi turli xatolarni to'g'rilash haqida ham so'z yuritiladi hamda yangi usuldagagi o'yinlar bilan ham tanishishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** muammoli ta'lif, imkoniyat, interfaol metod, chet tili, tajriba.

Hayotimizdagi har bir narsa bir biriga shunchalik uzviy bog'liqki, biri birisiz to'kin bo'lmaydi. Shanday ekan, biz umrimiz davomida juda ko'p narsalarni majburan va ixtiyoriy o'rganamiz. Bulardan biri esa chet tilini o'rganish. Mustaqillikdan so'ng mamlakatimizda chet tilini o'qitish va o'rganish uchun juda katta imkoniyatlarni eshigi ochildi desam xato bo'lmaydi. Chunki oydek ravshanki, bog'cha, maktab va oliy o'quv yurti muassalarida chet tili o'qitishga juda ham ko'plab shart-sharoitlar yaratib berilgan. Har bir imkoniyatdan foydalanish yosh avlodni kelajakda yanada aqli raso va bilimli bo'lishiga yordam beradi. Shuni takidlamoqchimanki, chet tili o'qitish ham qiziqarli ham murakkab jarayon. Dars o'tish metodlarini juda ham yaxshi o'zlashtirish va bularni dars jarayonida qo'llay olish bu pedagogikaning eng muhim ahamiyatga ega taraflaridan biridir. Darslar zerikarli bo'lmasligi va o'quvchilarni ishtiyoqini chet tili o'rganishga yanada oshirish uchun zamonaviy pedagoglar yangi metodlardan samarali va unumli foydalanib kelmoqdalar. Ular bilan quyida tanishib chiqsak bo'ladi. Kopgina adabiyotlarda hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lif metodlar: "Keys-stadii" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lif" ekanligi qayd etiladi. Malumotlarga ko'ra interfaol ta'lif strategiyalari qatoriga "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinamazina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" uslublar kiradi. [1]

Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Statlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda: – "Muammoli vaziyat yechimi" (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi; – "Quvnoq topishmoqlar" (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim

ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lган so'zlarni o'рганадilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar; – “Tezkor javob” (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi; – “Chigil yozdi” “Warm-up exercises”) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish: “Pantomima” (pantomime) bu usul juda qiyi mavzular tushuntirilishi kerak bo'lган darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi; – “Hikoya zanjiri” (a chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda yordam beradi; – “Rolli o'yinlar” (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin. Hunarga o'rgatish uchun “Interpreter”, “Translator”, “Writer”, “Poet” kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o'quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin; – “Allomalar yig'ini” (Thinkers meeting) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so'zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga yordam beradi; – “Rasmlar so'zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, talaba, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim; – Kviz kartochkalari (quiz cards) o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtida darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi.[2] Ko'rinish turibdiki, hozirgi zamonaviy davrda barcha shart-sharoitlar bisyor. Ulardan qanday mohirona foydalanishni bilsak bo'ldi xolos. Bolalarda yanada qiziqishni oshirish uchun har bir pedogog unga qanday usulda ta'lim berishni va qaysi mavzuda qaysi metodni qo'llashni bilishi bu uning mohir va mahoratli ekanligini anglashga xizmat qiladi. Chunki zed avlod vakillari texnologiya rivojlangan davrda kamol topyabdi, ularga ta'lim berish ham o'ziga yarasha qiyinchiliklar tug'diradi desam mubolag'a bo'lmaydi. Shuning uchun har bir pedogog o'zini ta'lim berish metodlarini rivojlantirishi va noan'anaviy metodlarni o'z darslariga tat tatbiq qilishi lozim. U o'z ishiga mehr va bilim berish maqsadida yondashsa, albatta, u bunga erisha oladi degan umiddaman.

Qolaversa, bizning davrda texnologiya juda ham jadal rivojlanib kelmoqda. Darslarda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan va gadgetlardan foydalanish bugungi kun talabiga aylanib bormoqda. Shuning uchun dars jarayonini yanada qiziqarli va jalb etuvchi qilib tashkil qilish uchun har bir pedogog texnologiyalardan yani kompyuter, monitor va boshqa zamonaviy texnologiyalar asosida dars o'tishni tatbiq qilishi kerak. Bu albatta juda ham yaxshi samara bera oladi va o'quvchilarni darsga bo'lган ishtiyoqi va intilishi oshadi. Hamda zamon bilan hamohang bo'ladi va bu o'z navbatida o'quvchini dunyoqarashini, fikrkashini, yuqori natijalarga erishishini kafolatlaydi. Har bir pedogog bolalarni bilim darajasiga va ularni qiziqishlariga qarab ularga mos o'yinlar yoki prisintatsiyalar tashkil etsa bo'ladi. Shunda o'quvchilar monitordan o'zlari ham foydalanadi, bu ularni ham nutqini

oshirishga hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanishga xizmat qiladi. Shu tufayli zamon bilan hamnafas bo'lgan holda va interaktiv va interfaol metodlar bilan o'sib kelayotgan avlodni yanada axloqli, yanada aqli, yanada bilimga chanqoq, yanada ertagangi kunga ishonchni va yanada chet tilini o'rganishga moyillikni oshirish uchun foydalansak bu eng katta yutuqlarimizdan biri bo'ladi. Axir bizning kelajagimiz yoshlari qo'lida. Ularning bilimli, zukko va tirishqoq bo'lishlari uchun biz ularga yetarli bilimlarni o'z vaqtida berishimiz zarur.

Xulosa o'rnida shuni takidlamoqchimanki, har bir pedogog o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'zlarining oldiga maqsad qo'yib unga intilishga undashga, o'z g'oyalarini rivojlantirib yangi fikr mulohazalarini bemalol kamchiliklarsiz ifodalab beradigan avlod qilib tarbiyalashi va ta'lim berishi darkor. Bu natijalarga erishish uchun esa interfaol metod va zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish juda ham sezilarli samara va yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. INTERFAOL USULLAR” (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.
2. Hoshimov O'., Yoqubov I. “INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI” (o'quv qo'llanma) Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003
3. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / M.Otaboyeva
4. Xoldorova M., Fayziyeva N., Rixsittilayeva F. “CHET TILINI O'QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH”.
5. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish”.
6. Yoqubov I. “INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI”